

“LOLANING USTIGA QOR YOG‘DI” YOHUD JAMIYAT QURBONI

Tadjibayeva Diyora Dilshod Qizi – ToshDO‘TAU talabasi

tojiboyevadiyora2004@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi badiiy, ijtimoiy va ramziy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda tabiat obrazlari orqali o‘sha davr jamiyatidagi ma‘naviy tanazzul, diniy mutaassiblik, ijtimoiy bosim hamda ayollarning ayanchli taqdiri yoritiladi. Lola timsoli beg‘ubor, hali hayotning shafqatsiz qonunlaridan bexabar yosh qiz obrazini ifodalasa, qor obrazi jamiyatning sovuqligi, zo‘ravonligi va adolatsizligini ramziy jihatdan aks ettiradi. Hikoyada ota, ona va eshon obrazlari orqali jamiyatda shakllangan noto‘g‘ri qadriyatlar va majburiy ijtimoiy munosabatlar fosh etiladi. Maqolada Cho‘lponning ramziy obraz yaratish mahorati, adabiy tanqidiy pozitsiyasi va jadid adabiyotidagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, ramziy obraz, lola timsoli, ayol taqdiri, ijtimoiy zulm, jadid adabiyoti, badiiy tahlil

Аннотация: *В статье рассматривается художественно-символический анализ рассказа Абдулхамида Чулпана «Тюльпан под снегом». Особое внимание уделяется использованию природных образов для раскрытия социальных и духовных проблем общества начала XX века. Образ тюльпана интерпретируется как символ чистоты, невинности и беззащитной женской судьбы, тогда как снег олицетворяет жестокость, равнодушие и социальное давление. Через образы отца, матери и религиозного деятеля автор показывает нравственный кризис общества, принудительные браки и угнетённое положение женщин. В статье анализируется художественное мастерство Чулпана, его критическое отношение к социальным порокам и вклад писателя в развитие джадидской литературы. Подчёркивается актуальность произведения для понимания историко-культурных процессов.*

Ключевые слова: Чулпан, символический образ, тюльпан, женская судьба, социальное угнетение, джадидская литература, художественный анализ

Abstract: This article presents a detailed literary and symbolic analysis of Abdulhamid Cholpon's short story "Tulip under the Snow." The study examines how natural imagery is used to expose social injustice, religious hypocrisy, and the oppressive conditions faced by women in early twentieth-century society. The tulip is interpreted as a symbol of innocence, youth, and a fragile female destiny, while the snow represents cruelty, indifference, and patriarchal pressure. Through the depiction of family and religious figures, the author criticizes moral decay and forced social norms. The article also highlights Cholpon's artistic mastery, his reformist worldview, and his significant role in Jadid literature, emphasizing the enduring relevance of his ideas in modern literary studies.

Keywords: Cholpon, symbolic imagery, tulip motif, women's fate, social oppression, Jadid literature, literary analysis.

“Qor qo‘ynida lola” hikoyasida Abdulhamid Cho‘lpon o‘z qahramonlari orqali insonning tabiat bilan, shuningdek, hayotdagi og‘ir sinovlar bilan kurashini badiiy yo‘sinda tasvirlaydi. Ushbu hikoyada yozuvchining badiiy uslubi, ramziy tafakkuri va tasvir mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon ko‘pincha tabiat manzaralaridan, sodda, ammo mazmunan teran ramzlardan foydalanib, insonning ichki kechinmalari va falsafiy mushohadalarini ochib beradi.

Hikoyadagi asosiy ramziy obraz – lola. Qahraton qishning sovuq bag‘rida ochilgan lola hayot, umid va qarshilik timsolidir. Bu ramz orqali Cho‘lpon insonni eng og‘ir sharoitlarda ham taslim bo‘lmaslikka, hayot uchun kurashishga da’vat etadi. Qor bag‘rida paydo bo‘lgan lola hayotdagi go‘zallikni, ezgulikni va insoniy poklikni ifodalaydi. Cho‘lponning yozish mahorati shundaki, u tabiatdagi oddiy hodisalardan chuqur falsafiy va ramziy mazmun yaratib, o‘quvchini inson qalbining eng nozik va teran qatlamlariga yetaklay oladi [2, 2001].

Mazkur talqinlarni inkor etmagan holda, ushbu asarni o‘qish jarayonida men ramzlarni boshqacha yo‘sinda angladim. Xususan, lola obrazini nozik, beg‘ubor yosh qizaloq timsolida, uning ustidagi qor qatlamini esa soqollari oqargan, qari eshon obrazining ramziy ifodasi sifatida qabul qildim. Cho‘lponning tabiat obrazlaridan foydalangan holda mazmun yaratish mahorati shundaki, bu obrazlar turli kitobxonlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Shu bois uning asarlarining ta’sir kuchi nihoyatda yuqoridir.

“Qor qo‘ynida lola” kichik hikoyasida o‘sha davr jamiyatida ayollarning qanday tazyiq va zo‘ravonliklar ostida yashagani ochib beriladi. Asarda qizining taqdiridan xavotirdagi ona, ko‘chada qizlar bilan to‘p o‘ynab yurgan beg‘ubor qizaloq, shuningdek, qizini soqollari oppoq eshonga erta va majburiy tarzda turmushga berayotgan ota obrazlari nihoyatda mohirlik bilan tasvirlangan.

Hali hayotning achchiq haqiqatlaridan bexabar qizaloq bolalik quvonchlarini totib yurgan bir paytda, otasi uning taqdirini sovchilarga rozilik berish orqali hal qilib qo‘yadi. Bu qarorning ortida bir necha ijtimoiy va ruhiy sabablar yotadi. Boyligi va obro‘sidan ayrilgan ota o‘tgan hayotini eslab, kechalari bilan iztirob chekadi. U ilgari boy bo‘lgan, jamiyatda hurmat topgan, eshonga qimmatbaho hadyalar bera olgan davrlarini bot-bot xotirlaydi. Endilikda esa unga yog‘ilayotgan malomatlar, eshonga yaqin bo‘lish uchun tezroq nazar-hadya berish ehtiyoji uni doimiy ruhiy qiynoqqa soladi. Bu holat faqat otaning emas, balki ana shu fikrlarni majburan singdirayotgan jamiyatning ham ayanchli nuqsonlarini fosh etadi.

Hikoyada quyidagi parcha keltiriladi:

— *Ho ‘x-ho‘, ko ‘cha juda qorong ‘iku!*

— *Shuni aytgil-a, osmonda dorig ‘a ham bitta yulduz topilmaydur!*

— *Yuraber. Bu kecha xuddi eshonbobongning ko ‘nglidek bo ‘libdir.*

Mazkur satrlar orqali muallif eshon obraziga mutlaqo zid bo‘lgan qorong‘i va sovuq muhitni tasvirlaydi. Ikki xotinga ega bo‘la turib, hali 17 yoshga ham to‘lmagan qizga sovchi qo‘ygan eshon obrazi asar davomida o‘quvchi uchun tobora ochilib boradi.

Bundan tashqari, zikr marosimi tasviri ham muhim badiiy tafsilotlardan biri hisoblanadi. Tilning mazmuni (soʻzlar va matnlar) endilikda nafaqat fikrning aniqligi va qisqaligi, balki etimologiyani chuqurligi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi [4, 782].

“Bir kun eshonnikida katta va qizgʻin bir zikr boʻldi... Qisqasi, bu kun qiyomat boʻldi.”

Aynan shu tasvirlar orqali eshonning “zikr” niqobi ostidagi soxta diniy faoliyati ochib beriladi. Jamiyat aʼzolari esa ana shunday shaxsga nazar-hadya berishni farz deb biladilar, hattoki bunga qurlari yetmasa, pushaymon ham boʻladilar.

Choʻlpon adabiyot haqida shunday yozadi:

“Adabiyot chin maʼnosi ila oʻlgan, soʻngan, yarador koʻngillarga ruh bermak uchun... bizga gʻoyat kerakdir” [1, 1994]. Haqiqatan ham Abdulhamid Choʻlpon asarlari inson qalbini poklaydigan, koʻzlarni ochadigan va jamiyatdagi illatlarni fosh etadigan kuchga ega. Uning oʻzbek adabiyotiga qoʻshgan hissasi beqiyos boʻlib, bugungi avlod oldidagi eng muhim vazifa bu bebaho adabiy merosni asrash va chuqur oʻrganishdan iboratdir.

“Qor qoʻynida lola” hikoyasi Choʻlponning yuksak badiiy mahoratini va ijtimoiy tashxis qoʻyishdagi jasoratini yorqin namoyon etadi. Asarda razolatga botgan jamiyat, diniy niqob ortiga yashiringan zulm, ayollarning ayovsiz taqdirga mahkum etilishi keskin qoralanadi. Begʻubor qizaloq lola timsolida, sovuq va shafqatsiz eshon esa qor timsolida gavdalantirilgan. Choʻlpon yurt dardi bilan yashagan jadid adib sifatida jamiyatning achchiq haqiqatlarini ramziy obrazlar orqali ochib bera olgan. Bu hikoya oʻsha davr ayollarining ijtimoiy ahvoli hamda jamiyatning tanazzulini ochib beruvchi muhim badiiy hujjatdir. Shu bois Choʻlponning bunday asarlarini oʻrganish va ularning tub maʼnosini anglash bugungi kitobxon uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

REFERENCE

1. Choʻlpon. Adabiyot nadir? – Toshkent: Choʻlpon, 1994.

2. Karimov I. Abdulhamid Cho‘lpon ijodiy merosi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2001.
3. Mirvaliyev A. Cho‘lponning badiiy tafakkuri. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997.
4. Toshtemirovich A. D. TILSHUNOSLIKDA TOVUSHGA TAQLID (ONOMATOPOETIK) NAZARIYASI VA UNING AHAMIYATI //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 781-785.
5. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue03-30>
6. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117 – 126.
7. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).

